

O'ZBEKISTONDA INNOVATSION SIYOSATNI AMALGA OSHIRISH USULLARI VA YO'NALISHLARI

Mirziyoyev Shokirjon Mirzaodil o'g'li

Namangan muhandislik-qurilish instituti Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash nazorat va monitoring bo'limi bosh mutaxassisi

Ganixodjayev B.F

BTOM bo'lim boshlig'i, i.f.n

Annotatsiya: *O'zbekistonda innovatsion siyosatni amalga oshirish usullari va yo'nalishlari haqida maqola yozish juda qiziq mavzudir. O'zbekistonda innovatsiyalar sohasi o'z vaqtida o'sayotgan soha bo'lib, hokazo, bu mavzuni o'rganish, doimiy yangilanishlar bilan tanishish va hokazo kabi tushunchalarga qo'ng'iroq qilish muhimdir.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston, farmon, ijtimoiy soha, investitsiyalar, tadbirkorlik, innovatsiyalarni joriy qilish, rivojlanish strategiyasi.*

O'zbekistonning innovatsion siyosati, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning faoliyat davrini boshlab boshqarishiga asoslangan. U, mamlakatda innovatsiyalarni rivojlantirish, ijtimoiy sohada yangi texnologiyalarni olib kelish va investitsiyalarni jalb qilishga katta e'tibor beradi. Bu maqolada, O'zbekistonda innovatsion siyosatni amalga oshirish usullari va yo'nalishlari haqida muhim qarorlar, proyektlar, va masalalar ko'rib chiqamiz.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

2022 — 2026-YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING INNOVATSION RIVOJLANISH STRATEGIYASINI TASDIQLASH TO'G'RI SIDA

2019 — 2021-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasining amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, shu jumladan qishloq xo'jaligi, energetika, qurilish, ta'lim, sog'liqni saqlashda innovatsion va texnologik rivojlanishni ta'minlash va rag'batlantirish borasida katta yutuqlarga erishildi. Xususan:

respublikamiz 81 ta indikator bo'yicha baholanadigan Global innovatsion indeksi reytingida 2015-yilga nisbatan 36 ta pog'onaga ko'tarildi;

innovatsiya va ilm-fan sohalariga Davlat budjetidan ajratiladigan yillik mablag'lar hajmi 2018-yilga nisbatan 3 baravarga oshirildi va 1,5 trillion so'mga yetkazildi;

yosh olimlar 2018-yilda 6,5 ming nafar bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda ularning soni 10,8 ming nafarni tashkil etdi, ya'ni bir yarim baravarga o'sdi;

oxirgi 4 yilda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bo'yicha maxsus institutlar (innovatsion jamg'armalar, venchur tashkilotlar va boshqalar) soni 28 taga yetkazildi;

2018-yildan boshlab har yili o'tkazilayotgan Xalqaro innovatsion g'oyalar haftaligi — "Innoweek.uz" xorijiy innovatsion va ilmiy markazlar, investitsion fondlar, texnologik agentliklar, texnoparklar va biznes-inkubatorlarni bir maqsad yo'lida jamlovchi innovatsion texnologiyalar platformasiga aylanmoqda.

Shu bilan birga, iqtisodiyotning real sektorida ilmiy va innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish darajasi, ilm-fan, ta'lim va sanoat o'rtasidagi hamkorlik aloqalari nisbatan past bo'lib qolmoqda.

Respublikada innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida innovatsiyalar va texnologiyalarni keng tatbiq qilish, inson kapitalini, ilm-fan va innovatsiya sohalarini rivojlantirish maqsadida:

1. 2022 — 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi (keyingi o'rinlarda — Strategiya) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Strategiyaning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

innovatsion infratuzilma subyektlari (innovatsion texnologik park, texnologiyalar transferi markazi, innovatsion klaster, venchur tashkiloti, innovatsiya markazi, startap akselerator, inkubator) tarmog'ini shakllantirish orqali startap tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash hamda yirik hajmli ishlab chiqarishni (kapital yaratish) tashkil etish;

innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish orqali innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirish;

kichik tadbirkorlikning innovatsion faolligini oshirish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jadal o'sishini ta'minlash;

yangi turdagi mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar yaratishning g'oyadan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan kompleks tizimini ta'minlash orqali innovatsiyalarga bo'lgan talabni rag'batlantirish;

yaratilgan kapitalni "tubdan yangilovchi" innovatsiyalarga qayta yo'naltirish tizimini shakllantirish;

ta'limning barcha bosqichlarida yaratuvchanlik, innovatsion tadbirkorlik va ratsionalizatorlik ko'nikmalarini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyat boshqaruvida inson kapitalini yanada rivojlantirish.

Belgilansinki, Strategiya erishilgan natijalar va maqsadli ko'rsatkichlar bo'yicha tegishli asosiy yo'nalishlardan kelib chiqqan holda, 2024-yildan boshlab alohida-alohida tasdiqlanadigan "Yo'l xaritasi" asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

3. Quyidagilar:

2022 — 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirishning maqsadli ko'rsatkichlari (keyingi o'rinlarda — Maqsadli ko'rsatkichlar) 2-ilovaga muvofiq;

2022 — 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirishning hududlar kesimidagi maqsadli ko'rsatkichlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Belgilansinki:

a) Maqsadli ko'rsatkichlar, shu jumladan quyidagilarni nazarda tutadi:

innovatsion faoliyat subyektlari (sanoat ishlab chiqarish tashkilotlari) sonini 613 tadan 2 250 tagacha yetkazish;

innovatsion infratuzilma subyektlari (texnoparklar, texnologiyalar transferi markazlari, innovatsion klasterlar, venchur tashkilotlar, innovatsiya markazlari, biznes-inkubatorlar va akseleratorlar) sonini 3 baravarga oshirish;

innovatsion tadbirkorlik natijasida yaratiladigan yangi ish o'rinlari sonini 4 baravarga oshirish;

ichki va tashqi bozorlarda tijoratlashtirish natijasida yaratiladigan yangi innovatsion ishlanmalar sonini 2 baravarga oshirish;

b) Strategiyani hududlar kesimida amalga oshirishning maqsadli ko'rsatkichlari, shu jumladan quyidagilarni nazarda tutadi:

hududdagi innovatsion markazlar sonini 494 tagacha yetkazish:

texnologik innovatsiyalar bilan shug'ullanuvchi mahalliy sanoat korxonalarini sonini 600 tagacha yetkazish;

hududlarda yaratiladigan yangi texnologiyalar sonini 384 tagacha oshirish;

hududlarda yillik ro'yxatga olingan patentlar sonini 184 tagacha yetkazish;

xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ilmiy, innovatsion va texnologik loyihalar sonini 183 tagacha oshirish;

innovatsion startaplar sonini 1 437 tagacha yetkazish.

5. 2022-yil 1-avgustdan boshlab innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etishda "tarmoq-hudud-ilmiy/oliy ta'lim tashkilot" zanjirining quyidagilarga asoslangan yaxlit tizimi joriy etilsin:

Oldingi tahrirga qarang.

hududiy tarmoq tashkilotlari innovatsiyalarga bo'lgan ehtiyoj(lar) portfelini ishlab chiqib, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining hududiy boshqarmalariga taqdim etadi;

(5-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PF-107-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining hududiy boshqarmalari tarmoq muammolarining ilmiy yechimini ta'minlash bo'yicha ijrochi ilmiy/oliy ta'lim tashkilotini (innovatsion spin-off kompaniyasini) tanlov asosida aniqlaydi;

(5-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PF-107-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son)

tanlov natijalariga ko'ra ilmiy/oliy ta'lim tashkiloti (innovatsion spin-off kompaniya) "1+1" prinsipi asosida tarmoq tashkilotlari bilan birga ishlab chiqilgan loyihalarni moliyalashtiradi;

Oldingi tahrirga qarang.

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan ishlab chiqarilishi bozorda muvaffaqiyatli o'zlashtirilgan innovatsion mahsulotlarni kengaytirish va kelgusida seriyalab sanoatda ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida investitsiya portfeli ishlab chiqiladi.

(5-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PF-107-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son)

Innovatsion rivojlanish vazirligi (I.Abduraxmonov) bir oy muddatda mazkur bandda nazarda tutilgan "tarmoq-hudud-ilmiy/oliy ta'lim tashkilot" zanjirini amaliyotga to'liq va sifatli tatbiq qilish bo'yicha tartibni ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

6. Belgilansinki:

a) 2022-yil 1-avgustdan "tubdan yangilovchi" innovatsiyalar yaratishni rag'batlantirishning quyidagi tizimi joriy etiladi:

mahalliy ilmiy tashkilotlar va korxonalariga innovatsion tovarlar va dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish, joriy etish va texnik qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat organlari va yirik davlat tashkilotlari bilan shartnomalarni to'g'ridan to'g'ri imzolash huquqi berilib, savdo xaridlari Elektron kooperatsiya portali orqali amalga oshiriladi;

Oldingi tahrirga qarang.

ustav fondida 50 va undan ortiq foiz davlat ulushi bo'lgan xo'jalik jamiyatlarida foyda solig'ini to'lagunga qadar foydaning 10 foizgacha miqdoridagi ("Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ va "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJda 10 milliard so'm qat'iy belgilangan miqdordagi) ajratmalari hisobidan korxonalarining alohida hisob raqamida shakllantiriladigan Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash jamg'armalari (keyingi o'rinda — Jamg'arma) tashkil etiladi. Bunda:

(6-band "a" kichik bandining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi PF-21-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son)

Jamg'arma yuridik shaxs hisoblanmaydi va uning mablag'lari "tubdan yangilovchi" innovatsiyalarni yaratishga va joriy qilishga yo'naltiriladi;

Oldingi tahrirga qarang.

Jamg'arma mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar portfeli Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishiladi;

(6-band "a" kichik bandining beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PF-107-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son)

Bosh vazir o'rinbosari S.Umurzakov ustav fondida 50 va undan ortiq foiz davlat ulushi bo'lgan xo'jalik jamiyatlari tomonidan mazkur bandning to'rtinchi

xatboshisida nazarda tutilgan mablag'larni Jamg'armalarga o'z vaqtida ajratish va undan maqsadli foydalanish ustidan tizimli nazoratni amalga oshiradi, shuningdek, har yarim yilda ular rahbarlarining hisobotini eshitadi.

Moliya vazirligi Hisob palatasi hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan birgalikda ustav fondida 50 va undan ortiq foiz davlat ulushi bo'lgan xo'jalik jamiyatlarida jamg'arma tashkil etilishi, uning mablag'lari tasdiqlangan miqdorda shakllantirilishi hamda maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o'rnatsin;

b) ishlab chiqarish korxonalari va tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlikda ulushli moliyalashtirish mexanizmiga muvofiq yangi ishlanmalarni joriy etish asosida yaratilgan innovatsiyalarni — intellektual mulkni ishlanma egalari bilan birgalikda patentlash va tijoratlashtirishni tashkil etish amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

7. Quyidagilar:

2026-yilga kelib mamlakatimiz Global innovatsion indeks reytingi bo'yicha jahonning 56 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishishni bosh maqsad qilib qo'yganligi;

2021-yilda Global innovatsion indeks reytingi e'lon qilinganligi, unda O'zbekiston o'tgan yilga nisbatan 7 ta pog'onaga ko'tarilib, 132 ta davlat orasida 86-o'rinni egallaganligi, shu sababli eng katta pog'ona yuqorilagan mamlakatlar top-10 taligiga kirganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashi (T.Narbayeva) Innovatsion rivojlanish vazirligi, manfaatdor vazirlik, idora va tashkilotlar bilan birgalikda bir oy muddatda Global innovatsion indeks reytingida O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilash bo'yicha 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqsin va amalga oshirsin.

8. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan birgalikda yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda "Innovatsion menejment", "Loyiha boshqaruvi", "Tijoratlashtirish", "Intellektual mulkni boshqarish" yo'nalishlari bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqsin va 2022/2023 o'quv yilidan boshlab tegishli oliy ta'lim muassasalarida joriy qilsin.

Oldingi tahrirga qarang.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda mehnat bozorida innovatsion rivojlanish yo'nalishidagi kadrlarga bo'lgan real ehtiyojdan kelib chiqib tayyorlangan kadrlar taqsimotini va bandligini ta'minlash choralarini ko'rsin.

(8-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PF-107-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son)

9. Namangan viloyati Chust tumani hokimining innovatsiyalarni rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimi joriy etilganligi hamda uning faoliyati davomida ijobiy ko'rsatkichlarga erishilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining o'z tuman (shahar)larining iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib, innovatsion hududga aylantirish maqsadida har bir hududda qo'shimcha tuman (shahar)larni belgilash haqidagi taklifiga rozilik berilsin hamda ushbu hududlar ro'yxati 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Nukus, Marhamat, Romitan, Do'stlik, Nishon, Karmana, Urgut, Sirdaryo, Oltinsoy, Ohangaron, Oltiariq va Gurlan hamda mazkur Farmonning 4-ilovada keltirilgan tumanlarda hokimning innovatsion rivojlanish masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimlari joriy qilinsin.

Belgilansinki:

hokim o'rinbosarlari lavozimlari tegishli tuman budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi;

Oldingi tahrirga qarang.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining hududiy boshqarmalari hamda tegishli tuman hokimlarining innovatsion rivojlanish masalalari bo'yicha o'rinbosarlari hamkorligini tashkillashtiradi.

(9-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PF-107-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son)

Bosh vazir o'rinbosari S.Umurzakov Innovatsion rivojlanish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari bilan birgalikda bir oy muddatda innovatsion rivojlanish masalalari bo'yicha hokimlarning o'rinbosarlari lavozimlari kiritilgan tumanlarni innovatsion hududlarga aylantirish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

10. Belgilansinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi PF-6198-son Farmoni bilan innovatsiyalarni joriy etish vazifasi yuklatilgan rahbar o'rinbosarlarining bazaviy lavozim maoshiga har oylik 30 foiz miqdoridagi ustamalar tegishli vazirlik, idora va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organining budjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan (budjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi mavjud bo'lmagan taqdirda Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida), xo'jalik birlashmalari, ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan yirik tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan to'lanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

11. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatilsin:

(11-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PF-107-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son)

iqtisodiyot tarmoqlari, hududlar, ilmiy va oliy ta'lim tashkilotlarining innovatsion faoliyati natijalari yillik reytingini yuritish;

ilmiy va oliy ta'lim tashkilotlarining ilmiy faoliyati bo'yicha baholash hamda yangi ilmiy ishlanma va texnologiyalar yaratish loyihalarini moliyalashtirishning yangi tizimlarini ishlab chiqish;

Elektron kooperatsiya portali orqali amalga oshiriladigan innovatsion mahsulot va xizmatlarni to'g'ridan to'g'ri xarid qilishga oid shartnomalarning reyestrini yuritish;

investitsion loyihalarda innovatsiyalarni joriy qilish, hududlarda o'zlashtiriladigan investitsiya loyihalarini texnologik yechimlar bilan to'ldirish, shu yo'nalishlarga investitsiya olib kelinishida ko'maklashish.

12. Ushbu Farmon ijrosini samarali tashkil qilish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Bosh vazir o'rinbosari S.U. Umurzakov hamda innovatsion rivojlanish vaziri I.Y. Abduraxmonov zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan 2023-yil 1-yanvarga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot berilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh,
2022-yil 6-iyul,
PF-165-son

Innovatsion yo'nalishlar va texnologiyalar: O'zbekistonda innovatsion rivojlanishning asosiy qismlaridan biri, texnologiyalar sohasidagi yangiliklar va ularni qo'llab-quvvatlashdir. Mamlakat IT sohasida, so'nggi yillarda ma'lumot texnologiyalari, dasturlash, va telekommunikatsiyalar sohasida katta rivojlanish ko'rsatmoqda. Bu yo'nalishda, korxonalar, dasturiy tadbirkorlik va IT texnologiyalari bo'yicha loyihalar, mehnat bozorining rivojlanishi, va yangi start-uplar o'zgaruvchilikka yo'l qo'yadilar.

O'zbekistonda innovatsion rivojlanishning bir qismi IT sohasida amalga oshiriladi. Bu sohada katta rivojlanishni ko'rish uchun qo'llanilayotgan bir nechta innovatsion yo'nalishlar mavjud:

Ma'lumot Texnologiyalari va Dasturlash: Ma'lumotlar va dasturlar sohasidagi rivojlanish, korxonalar va tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu sohada olib borilayotgan loyihalar, ma'lumotlar analitikasi, ma'lumotlar bazalari, asosan shu sohaning rivojlanishiga qaratilgan.

Telekommunikatsiyalar: Internet va mobil aloqalar sohasida rivojlanish, mamlakatning aloqa infrastrukturini kengaytiradi va yangi innovatsion xizmatlarni ko'rsatish imkoniyatlarini oshiradi. Bu, texnologiyalar sohasidagi rivojlanishni mustahkamlash va ijtimoiy sohadagi yangiliklarni o'z ichiga oladi.

Korxonalar va Dasturiy Tadbirkorlik: Korxonalar o'rtasida dasturiy tadbirkorlik va mahsulotlarni rivojlantirish sohasidagi innovatsiyalar muhim o'rin egallaydi. Korxonalar innovatsion dasturlarni qo'llab-quvvatlash, xususan, blockchain, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va ma'lumotlarni qo'llab-quvvatlash sohasida yangi yondashuvlar ko'rayotgan.

Mehnat Bozorining Rivojlanishi: IT sohasidagi innovatsiyalar, mehnat bozorini ham rivojlantirishga yordam beradi. Virtual realitiyadan foydalanish, onlayn ta'lim va dasturlar tashkil etish, ish o'zlashtirishning raqamli vositalarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, freelansing va ishlab chiqarishda raqamli platformalardan foydalanish rivojlanayotgan yo'nalishlardan ba'zilari.

Yangi Startuperlar: O'zbekistonda yangi startuperlar o'zgaruvchilikka yo'l qo'yimoqda. Ma'lumot texnologiyalari, telekommunikatsiya, tijorat, tibbiyot, agrar soha va boshqa sohalar bo'yicha innovatsion startuperlar o'zlarini ko'rsatmoqda. Davlat, dasturiy tadbirkorlik inkubatorlari va maxsus fondlar orqali bu startuperlar ko'plab ko'rsatmalar va moliyaviy yordamlar oladilar.

Shu kabi innovatsion yo'nalishlar va texnologiyalar O'zbekiston IT sohasidagi rivojlanishni kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Davlat va tadbirkorlik tashkilotlari innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash, ma'lumotlar bazasini rivojlantirish va soha tajribasini yaxshilash orqali sohani rivojlantirishga intiladilar.

Investitsiyalar: Innovatsion sohaning rivojlanishi uchun sifatli investitsiyalar o'z mavqesini egallaydi. O'zbekiston, tadbirkorlar uchun atraktiv bo'lgan investitsiya sharoitlari, soliq qo'llab-quvvatlari va boshqa moliyaviy imkoniyatlarga ega. Davlat ham investitsiyalarni jalb qilish va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun yordam beryapti.

Tadbirkorlik Darajasi: O'zbekiston, tadbirkorlik darajasini oshirish va yangi loyihalarni amalga oshirish uchun qo'llaniladigan muhim qo'shimcha sharoitlar yaratmoqda. Bu sharoitlar, korxonalarining innovatsion loyihalar uchun yangi moliyaviy resurslar va qo'llab-quvvat olishiga imkon beradi.

Dasturiy Tadbirkorlik va Startuperlarni Qo'llab-quvvatlash: Dasturiy tadbirkorlik sohasi ham katta e'tibor bilan qaralgan joy. Dasturiy mahsulotlar rivojlanishi, innovatsion loyihalar amalga oshirilishi va yangi texnologiyalar olib kelishi uchun moliyaviy yordam va investitsiyalar katta e'tibor talab etadi. Davlatning startuperlarni qo'llab-quvvatlash uchun kreditlar, grantlar, moliyaviy yordamlar va inkubatsiya dasturlari mavjud.

Moliyaviy Yordamlar: O'zbekiston, tadbirkorlarga moliyaviy yordam berish uchun turli shakllarda dastur va imtiyozlar tuzish bilan shug'ullanadi. Bu, innovatsion loyihalarni olib borish, ularga yatirish qilish va rivojlanishlarini ta'minlash uchun muhimdir.

Investitsiyalar va tadbirkorlik sohasida O'zbekistonning rivojlanishi, investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlar uchun qo'llab-quvvat tashkil etishga katta e'tibor berilishi lozim. Bu, yangi innovatsion loyihalar va startuperlarni olib borish,

sohadagi tajriba va bilimlarni oshirish va texnologiyalar sohasidagi yangiliklarni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini yaratishga yordam beradi.

Investitsiyalar va tadbirkorlik: O'zbekiston, innovatsion rivojlanishga investitsiyalarni jalb qilish va dasturiy tadbirkorlikni rivojlantirishda katta e'tibor beradi. Sifatli investitsiyalar va tadbirkorlik darajasi yuqori bo'lgan sohalar, innovatsion loyihalar uchun yaxshi imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, dasturiy tadbirkorlik va startaplarni qo'llab-quvvatlash uchun kreditlar, grantlar, va boshqa moliyaviy yordamlar mavjud.

Tarbiyalash va rivojlanish: Innovatsion siyosatni amalga oshirishning bir qismi, inson manbalari rivojlantirish va ularni yangilashdir. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari va akademik institutlar innovatsion loyihalarni olib borishda katta rol o'ynaydi. Akademik sohalar, innovatsion laboratoriyalar va innovatsion kengashlar orqali yangi fikrlar va loyihalar olib boriladi.

Oliy ta'lim muassasalari: O'zbekistonning oliy ta'lim muassasalari, akademik institutlari va universitetlari, innovatsion loyihalarni olib borishda katta rol o'ynaydi. Bu muassasalar innovatsion rivojlanish uchun yangi fikrlarni olib borish, talabalarga innovatsion yondashuvlar berish, va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishda katta muhim ahamiyatga ega.

Akademik sohalar va innovatsion laboratoriyalar: Akademik sohalar va innovatsion laboratoriyalar, yangi fikrlarni olib borish va ulardan amaliyotda foydalanishda muhim rollarni o'ynaydilar. Bu joylar talabalarga, professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilarga innovatsion mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini berish va ularga bu sohada tajriba yig'ish uchun muhit yaratishda ishtirok etadi.

Innovatsion kengashlar va ishlab chiqarish guruhleri: Innovatsion kengashlar va ishlab chiqarish guruhleri, innovatsion loyihalarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ular yangi fikrlarni tahlil qilish, biznes-rejalarini rivojlantirish, tadbirkorlar va investitsiyalarni jalb qilishda yordam beradi. Shuningdek, bu tashkilotlar innovatsion jihatdan strategik yo'nalishlarni belgilashda ham muhim rol o'ynaydilar.

Yerli va xalqaro hamkorliklar: Tarbiyalash va rivojlanish sohasida, yerli va xalqaro hamkorliklar ham katta ahamiyatga ega. O'zbekistonning akademik institutlari, universitetlari va laboratoriyalari xalqaro innovatsion tarmoqlar bilan ishbilarmonlik qilish, yangi texnologiyalarni import qilish va o'z mamlakatidagi innovatsion taraqqiyotni oshirishda ishtirok etishadi.

Bu faktlar bilan, O'zbekistonning innovatsion rivojlanishini oshirishda tarbiyalash va rivojlanish sohasining katta ahamiyati va roli ko'rsatilgan. Akademik sohalar, laboratoriyalar, innovatsion kengashlar va hamkorliklar orqali, mamlakat innovatsion fikrlarni olib borish, ulardan foydalanish va tajriba olish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

Qonuniy Tuzilmalar va Davlat Dasturlari: Innovatsion rivojlanishning o'ziga xos qonuniy va davlat dasturlari bo'lishi muhimdir. O'zbekiston Prezidentining qonuniy va boshqa dasturlari, innovatsion tadbirkorlikni o'zida olib borish uchun kerakli sharoit va imkoniyatlarni yaratadi. Bu qonuniy to'g'ri ravishda innovatsion siyosatni olib borish va uning amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Birgalikda Ishtirok etish va Hamkorliklar: O'zbekistonda innovatsion rivojlanishning muhim qismlaridan biri hamkorliklar va birgalikda ishtirok etishdir. Mamlakat xalqaro tajribani olib, yurtdan texnologiyalarni import qilish, innovatsion loyihalarni olib borish, va o'zaro ko'rsatmalar va ko'p tomonlama projeklarni amalga oshirishni ta'minlaydi.

Maqolada ko'rsatilgan yo'nalishlar va usullar O'zbekistondagi innovatsion siyosatni amalga oshirishda muhim o'rin egallaydi. Har bir yo'nalish o'zida xususiyatlarga ega bo'lib, innovatsion taraqqiyotni oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu yo'nalishlardan foydalanib, O'zbekiston innovatsion sohaning rivojlanishiga katta e'tkazib berish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI 2022 — 2026-YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING INNOVATSION RIVOJLANISH STRATEGIYASINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA**
2. <https://lex.uz/>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2018/09/21/strategiya/>
4. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/25_Djalilova.pdf

